TURIZMDA INNOVATSION TEXNALOGIYALAR O'RNI

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti talabasi:

RST77/23-guruh talabasi

Murodova E'zoza Zokir qizi

Ilmiy rahbar:Akbarova.B

Annotatsiya: Turizmda raqamli texnologiyalar tushunchasi ochib berilgan va turizmda foydalaniladigan raqamli texnologiyalar turlari tavsiflangan. Raqamli texnologiyalarning hozirgi holati va raqamlashtirishning turli mamlakatlarda turizm industriyasi rivojiga ta'siri tahlil qilingan. Ushbu maqolada turizm sanoatida zamonaviy innovatsion texnologiyalarning qo'llanilishi, ularning soha samaradorligini oshirishdagi ahamiyati va sayyohlar tajribasiga ta'siri tahlil qilinadi. Sun'iy intellekt, VR/AR texnologiyalari, Big Data va blokcheyn kabi innovatsiyalarning turistik xizmatlar sifatini yaxshilashdagi roli yoritib berilgan. Shuningdek, O'zbekiston turizm bozoriga raqamli echimlarni joriy etish masalalari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar:raqamli iqtisodiyot, tadbirkorlik, turizm sohasi, axborot texnalogiyalarining rivojlanishi, elektron vizalar, turistik servis.

Kirish: Bugungi kunda jahon iqtisodiyotining eng dinamik tarmoqlaridan biri bo'lgan turizm industriyasi tub burilish nuqtasida turibdi. To'rtinchi sanoat inqilobi (Industry 4.0) sharoitida raqamli texnologiyalar nafaqat iqtisodiyotning ishlab chiqarish sektorini, balki xizmat ko'rsatish sohasini, xususan, turizmni ham tanib bo'lmas darajada o'zgartirib yubordi. Hozirgi zamon sayyohi — bu faqatgina sayohat qiluvchi shaxs emas, balki axborot oqimidan samarali foydalanuvchi, mobil ilovalar, sun'iy intellekt va shaxsiylashtirilgan xizmatlarni talab qiluvchi "raqamli

iste’molchi"dir.Turizmda innovatsiyalarning o‘rni faqatgina an’anaviy jarayonlarni avtomatlashtirish bilan cheklanib qolmaydi. Ular turistik mahsulotning mazmun-mohiyatini va uni iste’molchiga yetkazib berish zanjirini yangilaydi. Masalan, virtual reallik (VR) texnologiyalari sayohatdan oldingi qaror qabul qilish jarayonini optimallashtirsa, blokcheyn tizimlari moliyaviy tranzaksiyalarning mutlaq xavfsizligini kafolatlaydi. Bu esa, o‘z navbatida, sohadagi ishonchlilik va shaffoflik darajasini yangi bosqichga olib chiqadi.O‘zbekiston sharoitida turizmni modernizatsiya qilish strategik ahamiyatga ega. Mamlakatimizning boy madaniy-tarixiy merosini global miqyosda targ‘ib qilishda innovatsion marketing instrumentlari, "Smart Tourism" (aqlli turizm) konsepsiyasi va geo-axborot tizimlaridan foydalanish hayotiy zaruriyatdir. Shuningdek, turizmda raqamli transformatsiyani jadallashtirish xizmatlar tannarxini tushirishga, xalqaro raqobatbardoshlikni oshirishga va mamlakatga valyuta tushumini ko‘paytirishga xizmat qiladi. Ushbu maqolaning dolzarbligi shundaki, unda global turizm bozoridagi eng so‘nggi texnologik tendensiyalar tahlil qilinadi va ularni mahalliy turistik infratuzilmaga adaptatsiya qilishning ilmiy-amaliy asoslari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotning maqsadi — turizm sohasini raqamlashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini baholash hamda sohani innovatsion rivojlantirish bo‘yicha aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tahlil va natijalar: Zamonaviy dunyoda raqamli texnologiyalar inson faoliyatining barcha sohalariga joriy etilmoqda. Ular sanoat va boshqa korxonalarda xaridorlar bilan ishlash yoki yangi mahsulotlar ishlab chiqarish jarayonini tezlashtiradi. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi turizm sanoatiga ham ta'sir ko'rsatdi. Turizmda raqamli texnologiyalar axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) yoki axborot texnologiyalarini (IT) mehmondo'stlik va turizm sanoatini axborot bilan ta'minlash va qo'llab-quvvatlash uchun qo'llashni anglatadi. Turizmdagi raqamli texnologiyalar elektron sayohat yoki elektron turizm

bilan ham sinonimdir. Ushbu xizmat turizm sanoatida elektron tijorat va axborot texnologiyalari sohasidagi yechimlarni tahlil qilish, ishlab chiqish, joriy etish va qo‘llashni ta’minlaydi. Shuningdek, u turli xil mijozlar munosabatlari, bozor tuzilmalari va iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Turizmga joriy etilgan raqamli texnologiyalarni Respublikamizda quyidagi guruhlar bilan ifodalash maqsadga muvofiq:

- sayyohlarni bir nuqtadan ikkinchisiga ko'chirish jarayonini tezlashtirishga yordam beradigan transport texnologiyalari
- ekologik tozalik, yo'lovchilar xavfsizligi darajasining oshishi bilan tavsiflanadi va ular qisqa vaqt ichida ko'proq mamlakatlar va diqqatga sazovor joylarni qamrab olishga yordam beradi.
- internetdan foydalangan holda ishlaydigan va ishchilar boshqa turistlarga bilan har qanday ma'lumot almashishi mumkin bo'lgan tezkor xabarchilar (xabarlar, fotosuratlar, videolar, hujjatlar yuborish);
- aqlli mobil texnologiyalar (sayohatchilar uchun mobil ilovalar, jumladan, ekskursiya ilovalari, qr-kodni aniqlash ilovasi, mehmonxona va turlarni qidirish ilovalari va boshqalar) boshqa texnologiyalar orasida eng tez o'sib bormoqda, chunki odamlar smartfonlardan ko'proq foydalanadilar;
- sun'iy intellekt va uning turli ilovalari (turistga qiziqarli mavzu bo'yicha ma'lumot topishda yordam beradigan robot ilovalari);
- qo'shimcha va virtual haqiqat (dunyo muzeylari va shaharlari bo'ylab virtual sayohatlar yaratish, rasmning tasvirini yoki harakatlarini yaxshiroq etkazish uchun muzey eksponatlarida ushbu texnologiyalardan foydalanish);
- " blockchain " (ikki kishi o'rtasidagi tranzaktsiyalar haqidagi ma'lumotlarni

xavfsiz va tekshirilishi mumkin bo'lgan tarzda saqlash).

Hilton mehmonxonalar tarmog’i 2020 yilda HiltonHonors ilovasini yaratilishi natijasida,mehmon o’zi xohlagan xonani tanlashi, buning uchun pul to’lashi mumkin, lekin eng muhimi, u xonani o’z ehtiyojlariga moslashtirishi qo’shimcha xonaning mavjudligini to’shak, yostiq turi, mini-baring mavjudligi yoki yo’qligini oldindan ko’ra olish imkoniyatlarini ochib berdi.Barcha davlatlarda turizmni raqamlashtirishga katta miqdorda sarmoya kiritmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoniga binoan 2022-2026 yilgacha bo'lgan davrda "Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash" nomli ustuvor yo'nalishi 16 ta maqsadni o'z ichiga olgan. Shuningdek, «O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling» dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga etkazish maqsadi 10 ta asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi, bular quyidagilar:

- to'siqsiz turizm infratuzilmasini mamlakatning asosiy turizm shaharlarida keng joriy qilish. 2026 yilgacha turizm sohasida band bo'lgan aholi sonini 2 baravar oshirib, 520 ming nafarga etkazish.
- turizm va madaniy meros ob'ektlari infratuzilmasini rivojlantirish hamda 8 mingdan ortiq madaniy meros ob'ektlaridan samarali foydalanish bo'yicha davlat dasturini qabul qilish.
- zomin, forish, baxmal tumanlari va «aydar-arnasoy» ko‘llar tizimida qo'shimcha turistik zonalar va dam olish maskanlarini barpo etish, 300 million aqsh dollariga teng loyihalarni amalga oshirish, 25 ming ish o'rinini yaratish.

- samarqandni <«turizm darvozasi»ga aylantirish orqali kelgusi besh yilda turizm xizmatlari hajmini kamida 10 baravarga oshirish. turizm sohasida 40 ming kishi bandligini ta'minlash. 2022 yilda «abadiy shahar» tarixiy majmuasini o'z ichiga olgan samarqand turizm markazini va zaruriy infratuzilmani tashkil etish.
- qoraqalpog'iston respublikasi va orol bo'yida ekoturizmni rivojlantirish bo'yicha alohida dasturni amalga oshirish, bunda, mo'ynoqning yangi aeroporti imkoniyatlaridan keng foydalanish.
- xorazm viloyatida turizm yangi ish o'rinlarini yaratishda asosiy drayver soha bo'lishi uchun alohida dastur qabul qilish.
- buxoro viloyatida turizmni jadal rivojlantirish bo'yicha alohida dasturni amalga oshirish.
- navoiy viloyatida ziyorat va ekoturizm salohiyatidan samarali foydalanish.
- toshkent shahrida turizm infratuzilmasini yanada yaxshilash.

toshkent viloyatida turizm salohiyatini yangi bosqichga olib chiqish bo’yicha alohida dastur ishlab chiqish.

Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi ko'plab iqtisodiy faoliyat turlarini, jumladan turizmni infratuzilma bilan ta'minlashni sezilarli darajada o‘zgartiradi. Raqamli iqtisodiyotning asosi katta hajmdagi axborotni qayta ishlash ekanligini hisobga olsak, axborotni saqlash, qayta ishlash va uzatishning yuqori texnologiyali tizimi alohida ahamiyatga ega. Potensial sayyohlarga qulaylik yaratish maqsadida aviachiptalarni xarid qilish, mehmonxonalarni bron qilish, hudud bo'ylab sayohat qilish, diqqatga sazovor joylar, madaniy va tarixiy meros haqida ma'lumot, reytinglarni taqdim etish kabi keng funksiyalarni ta'minlovchi mobil texnologiyalar faol rivojlanishini kutishimiz kerak. Raqamli iqtisodiyot turizm korxonalarining potentsial yangi shakllarini yaratish imkoniyatini

yaratadi. Kadrlar infratuzilmasi sohasida ham jiddiy o'zgarishlar bo'ladi. Ijtimoiy hayotimiz va sayyohlik faoliyatimiz tobora texnologik tus olmoqda, jahon turizmi sohasida yangi yagona axborot makonini shakllantirmoqda, axborot bilan ta'minlash va turizmni boshqarish tizimi ishlab chiqarilmoqda.

Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, innovatsiyalarni joriy etgan turistik kompaniyalar operatsion xarajatlarni oʻrtacha 15-20% ga kamaytirishga erishgan. Oʻzbekiston misolida "Smart Tourism" konsepsiyasining joriy etilishi, xususan, elektron viza (e-visa) tizimi va turistik obidalarda QR-kodlar orqali maʼlumot olish imkoniyatining yaratilishi sayyohlar oqimining koʻpayishiga ijobiy taʼsir koʻrsatdi.

Biroq, muhokama qilinishi lozim boʻlgan masalalar ham mavjud:

-Kadrlar tayyorlash darajasining texnologik oʻsishdan ortda qolayotgani;

-Kiberxavfsizlik va shaxsiy maʼlumotlar himoyasi;

-Yuqori texnologiyalarni joriy etish uchun talab qilinadigan katta investitsiya miqdori.

3 oyda Oʼzbekistonga 2,8 mlndan ortiq turist tashrif buyurdi. Milliy statistika qoʻmitasi maʼlumotlariga koʻra, 2026-yilning yanvar-mart oylarida 164 ta mamlakatdan jami 2 872 502 nafar chet el fuqarolari turistik maqsadlarda Oʻzbekistonga tashrif buyurgan.Bu koʻrsatkich oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 770 ming nafarga yoki 36,6 foizga oshgan.

Turistlar soni bo'yicha TOP-10 davlatlar:

Qirg'iz Respublikasi - 807 095 nafar;

Tojikiston - 713 904 nafar;

Qozog'iston - 681 921 nafar;

Rossiya 223 285 nafar;

Afg'oniston 120 184 nafar;

Xitoy 87 023 nafar;

Turkmaniston - 79 046 nafar;

Turkiya 39 445 nafar;

Hindiston-12 600 nafar;

Koreya Respublikasi - 7813 nafar.

Xulosa

Olib borilgan tadqiqot va tahlillar shuni koʻrsatadiki, zamonaviy turizm industriyasining barqaror rivojlanishini innovatsion texnologiyalarsiz tasavvur etib boʻlmaydi. Texnologik taraqqiyot nafaqat xizmat koʻrsatish jarayonlarini tezlashtiradi, balki butun boshli turistik ekotizimning ishlash tamoyillarini tubdan oʻzgartiradi.

Birinchidan, raqamli transformatsiya turizmda "isteʼmolchi – xizmat koʻrsatuvchi" zanjiridagi byurokratiya va ortiqcha xarajatlarni bartaraf etadi. Sunʼiy intellekt va Big Data tahlillari orqali har bir sayyohga individual yondashuv imkoniyatining yaratilishi mijozlar sodiqligini oshirishning eng samarali vositasiga aylandi. Bu, ayniqsa, pandemiya va undan keyingi davrda global turizm bozorining qayta tiklanishida asosiy drayver vazifasini oʻtadi.

Ikkinchidan, VR (Virtual reallik) va AR (Toʻldirilgan borliq) texnologiyalari turizm mahsulotini sotishning yangi marketing modelini shakllantirdi. Endilikda sayyohlar "sinab koʻrish va keyin sotib olish" imkoniyati orqali oʻz sayohatlaridan qoniqish darajasini oldindan prognoz qila oladilar. Bu esa turistik kompaniyalar uchun mijozlar ishonchini qozonishda muhim ustunlik yaratadi.

Uchinchidan, O‘zbekiston misolida "Smart Tourism" konsepsiyasini kengaytirish milliy iqtisodiyot uchun strategik ahamiyatga ega. Mamlakatimizning tarixiy shaharlarida raqamli infratuzilmani (yagona turistik karta, aqlli navigatsiya tizimlari, 5G aloqasi) rivojlantirish orqali turizmning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini sezilarli darajada oshirish mumkin. Shuningdek, blokcheyn texnologiyasini joriy etish orqali xalqaro to‘lovlar va xavfsizlik masalalarini hal etish, xorijiy sayyohlar oqimining yanada ko‘payishiga yo‘l ochadi.Biroq, innovatsiyalarni joriy etishda faqatgina texnologik jihatga emas, balki kadrlar masalasiga ham e’tibor qaratish lozim. Yuqori texnologiyalar bilan ishlay oladigan mutaxassislarni tayyorlash va turizm ta’limini raqamlashtirish bugungi kunning eng dolzarb vazifasidir.

Xulosa qilib aytganda, turizmda innovatsiyalar shunchaki trend emas, balki global raqobatda omon qolishning yagona yo‘lidir. Innovatsion texnologiyalarni tizimli ravishda amaliyotga tatbiq etish, turistik xizmatlar sifatini yangi sifat bosqichiga olib chiqish bilan birga, sohaga yo‘naltirilgan investitsiyalarning qaytimini (ROI) bir necha barobar tezlashtiradi. Kelajakda "aqlli texnologiyalar" va "barqaror turizm" (Sustainable Tourism) tamoyillarining uyg‘unlashuvi sohaning ekologik va iqtisodiy barqarorligini ta’minlashda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.

2. Raximov Z.O. Turizm sohasida mehmonxonalar xo'jaligini rivojlantirishning ijtimoiyiqtisodiy muammolari.// Monografiya. Samarqand: SamISI, 2021. 212 bet.

3. Tashkenbayeva Z.U., O'zbekiston Respublikasida turizm sohasining hozirgi holati va rivojlanish tendensiyalari, "Raqamli iqtisodiyot sharoitida investitsiya faoliyatini rivojlantirishning dolzarb masalalari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasining materiallari to'plami, 5- may 2021-yil. 500-503 betlar "Iqtisod-moliya.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Turizm sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Farmonlari.

5.stat.uz